

VOHIDOV VOSIT VOHIDOVICHNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13839867>

Toshkent Tibbiyot akademiyasi ,

Pedagogika va psixologiya

*kafedrasi o'qituvchisi **Abdumutalibova Mag'firat Mirodil qizi***

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Pediatriya, Stomatologiya, Xalq tabobati va Tibbiy pedagogika fakulteti

*Pediatriya yo`nalishi 2-kurs talabasi **Shomurodova Xilola Bahodir qizi***

Annotatsiya

Ushbu maqolada atoqli o'zbek jarrohi, zamonaviy jarrohlik maktabining asoschilaridan biri, O'rta Osiyoda birinchi ko'p tarmoqli jarrohlik ilmiy- tadqiqot muassasining tashkilotchisi, akademik Vohidov Vosit Vohidovich hayoti va ilmiy faoliyati hamda bu beqiyos xizmatlari uchun davlatimiz tomonidan qaratilgan e'tiorf va e'tiborlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar

Dissertatsiya, Ittifoq, eksperimental, xirurgiya, gospital xirurgiyasi, jarrohlar assotsiatsiyasi, jarrohlik maktabi.

Аннотация

В данной статье представлены сведения о жизни и научной деятельности известного узбекского хирурга, одного из основоположников современной хирургической школы, организатора первого многопрофильного хирургического научно-исследовательского учреждения в Центральной Азии, академика Вохидова Восита Вохидовича, а также о признании и внимание, уделяемое нашим государством этим несравненным услугам.

Ключевые слова

Диссертация, Союз, Экспериментальная, Хирургия, Госпитальная хирургия, Ассоциация хирургов, Школа хирургии

Annotatsion

This article provides information about the life and scientific activity of the famous Uzbek surgeon, one of the founders of the modern surgical school, the organizer of the first multidisciplinary surgical research institution in Central Asia, Academician Vohidov Vosit Vohidovich, as well as the recognition and attention paid by our state for these incomparable services.

Keywords

Dissertation, Union, Experimental, Surgery, Hospital surgery, Association of surgeons, School of surgery

Vohidov Vosit Vohidovich 1917- yil 13- dekabrda Turkiston viloyatining Chagʻa qishlogʻida dehqon oilasida tugʻilgan. Akademik oʻzining dehqon oilasida tugʻilgani, otasi Avduvahit Xalmetovga ferma ishlarida yordam bergani, onasi Xojar Xalmetovaning qattiqqoʻl, intizomni sevadigan tartibli ayol boʻlgani va balki ushbu tartib -intizom sabab ushbu yutuqlarga erishgani haqida aytib oʻtgan. V.V.Vohidov 1939- yilda Toshkent tibbiyot instituti (hozirgi Toshkent Tibbiyot Akademiyasi) ni tamomlagan. U 1950- yilda "Yiringli kasalliklarda oshqozon osti bezi funksiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1962- yilda esa "Plevral yopishqoqlik va ularning tomirlarining oʻpka qon aylanishidagi ahamiyati " mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.1973- yilning 6- dekabrda SSSR sogʻliqni saqlash vaziri, akademik B.V.Petrovskiyning 970- sonli " Sogʻliqni saqlash tashkilotini tashkil etish" toʻgʻrisidagi buyrugʻi eʻlon qilindi. SSSR Sogʻliqni saqlash vazirligining Toshkent shahridagi Butun Ittifoq klinik va eksperimental xirurgiya ilmiy tadqiqot instituti filialiga Toshkent davlat tibbiyot instituti gospital xirurgiyasi kafedrasini mudiri, professor Vosit Vohidovich Vohidov VNIiKiEH filiali direktori etib tayinlandi.

V.V.Vohidov Butun Ittifoq xirurgiya ilmiy - tadqiqot markazining Toshkent filialini yaratdi va umrining oxirigacha ushbu markaz direktori boʻlib qoldi. Jarrohlikning deyarli barcha boʻlimlarini oʻrganishga bagʻishlangan 180 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. Ilmiy maqolalari - oʻpka, mediastinal organlar, oʻt yoʻllari, jigar, oshqozon, yurak, pastki ekstremitalarning katta tomirlari, qorin boʻshligʻi organlarining shoshilinch jarrohlik kasalliklari, va boshqalar haqida boʻlgan. Izdoshlari sifatida 15 nafar fan doktori va 60 nafar fan nomzodini tayyorlagan. Butunjahon jarrohlar assotsiatsiyasining haqiqiy aʻzosi, Oʻzbekiston tibbiyot jurnali muharriri, SSSR "Xirurgiya" jurnali tahririyati aʻzosi boʻlgan.

Akademik butun umrlik ilmiy izlanishlari, jarrohlik maktabiga qoʻshgan ulkan hissasi uchun 2003 yil 25 avgust , (vafotidan keyin) " Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan, SSSR tomonidan 1976- yilda Lenin ordeni bilan, 1981- yil 26-iyunda "Oktyabr inqilobi" ordeni, Sovet xalqining sogʻligʻini himoya qilish va tibbiyot fanini rivojlantirish sohasidagi ulkan xizmatlari uchun 1961 yil 11 fevralda "Shon-sharaf belgisi" ordeni bilan taqdirlangan. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 6-iyuldagi qarori bilan yuqorida tilga olingan Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga uning nomi berildi. Ikki oy muddat ichida Respublika xirurgiya ilmiy tadqiqot markazi binosiga

akademik V.Vohidovning portreti tushirilgan yodgorlik lavhasi o‘rnatildi. 1996 yil 4-5 sentabrda “Vohidov o‘qishlari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B. Babadjanov, D. Oxunov Umumiy xirurgiya
2. Oxunov Alisher Oripovich, Umumiy xirurgiya 2023-yil.
3. " <https://uz.wikipedia.org>" sayti
4. " <https://arboblar.uz> " sayti
5. " <https://web.archive.org> " sayti